Ona tili

III qism

3



novda
edutainment

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

D. D. Baynazarova

Ona tili

3-sinf
III qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

novda
edutainment

Toshkent – 2023

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 61
14. 12 2023 y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 811.512.133(075.3)
BBK 81.2O'zb-922
T-60

Baynazarova D.D.
Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. III qism. / Baynazarova D.D. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 96 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahar 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9715-5-4

© D. D. Baynazarova
© "Novda Edutainment", 2023

Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Savollarga javob bering



Topshiriqni bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring



Guruh bo‘lib ishlang

Hurmatli o‘quvchi!

Ona tiliga mehr Vatanga muhabbat kabi pok tuyg‘udir.

Bu kitob ko‘zlari chaqnoq, ilmga tashna Sizdek bolajonlarning nutq va lug‘at boyligini o‘stirishga, imloviy savodxonligi, to‘g‘ri yozish, o‘qish hamda husnixat ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Darslikda grammatika qoidalarini oson o‘zlashtirishingiz, grammatik tahlilni sodda, aniq yo‘llar bilan amalga oshirishingiz va ijodiy fikrlashni o‘rganishingiz uchun turli jadval, rebus, boshqotirma, diktant va test topshiriqlari berilgan.

Omad yor bo‘lsin!





2-chorakda o‘tilganlarni takrorlash

1-mashq. **Jadvalni so‘z yasovchi qo‘shimchalarga mos so‘zlar topib to‘ldiring.**

-kor	-chi	-dosh

2-mashq. **O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni so‘z tarkibi bo‘yicha tahlil qiling.**

Qushlar

Kunlar isib, qushlar turli o‘lkalardan uchib kela boshladi. Qushlar dala va bog‘dagi **zararli hasharotlarni** terib yeydi. Akam **qushlarga** juda mehribon. U in yasadi va daraxt **shoxiga** osib qo‘ydi. Qushlar endi shu **inda** yashaydi.



So‘z tarkibi bo‘yicha tahlil qilish tartibi:

1. So‘zning asosini ko‘rsatish; 2 ta asosdosh so‘zlar topish.

2. Qo‘shimchalarini aniqlash:
a) so‘z yasovchi qo‘shimcha;
b) so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha.

Namuna: zararli: zarar – asos; zararsiz, zararli – asosdosh so‘zlar, -li – so‘z yasovchi qo‘shimcha.



3-mashq. O‘qing.
Berilgan so‘zlarni jadvalga namunadagidek joylashtiring.

Osmonda, telefonning, fikrsiz, ma’noli, ijodkorning, sirdoshga, odobsizdan, sholikordan, derazadan, go‘zallikning.

So‘z	Asos	So‘z yasovchi qo‘shimcha	So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimcha
osmonda	osmon	–	-da



4-mashq. O‘qing.
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asosini, so‘z yasovchi va so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarini aniqlang. Shu so‘zlarni yozing, asos va so‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

1. Kecha **yomg‘irli** kun bo‘ldi. **2.** Chumchuqlar **bug‘doyzorga** qo‘ndi. **3.** Qish **faslida** kunlar qisqaradi. **4.** Yanvar **oyida** qattiq sovuq bo‘ldi. **5. Qishda** ariqlardagi suvlar muzlaydi. **6.** Muzlar quyosh **nurida** yarqiraydi. **7.** Musicha daraxt **shoxiga** qo‘ndi. **8. Yozda** o‘quvchilar **oromgohga** boradilar. **9.** Men **akamga** xat yozdim.

So‘z turkumlari

5-mashq. Shaxs-narsaning belgi, sanog‘i va harakatini bildirgan so‘zlarni topib belgilang.

Cholning to‘rtta o‘g‘li ham otalari kabi saxiy, saxovatli, mehnatkash bo‘lgan ekan. Echki bolalari yettita bo‘lib, ular juda ahil, inoq va sho‘x edi.

6-mashq. O‘qing.
Avval shaxs-narsani, keyin belgini, so‘ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so‘zlarni yozing. Ularga so‘roq bering.

Issiqxona

Qahraton qish. Hamma yoq qor bilan qoplangan. Issiqxonada bahor. Bodring, pomidor va rediskalar pishib turibdi. Issiqxonani qishga tayyorlash uchun ko‘p mehnat qilindi. Issiqxonada birinchi bo‘lib, tuproqlari yangilandi. Ikkita elektr isitkichlari tuzatildi. Tepasi oyna bilan qoplandi. Ana shu ishlar tufayli mo‘l hosil olindi, qish dasturxoni bezatildi.



Namuna:
Shaxs-narsani bildirgan so‘zlar: qish, ...
Belgini bildirgan so‘zlar: ...
Sanoqni va tartibni bildirgan so‘zlar: ...
Harakatni bildirgan so‘zlar: ...



Ot, sifat, son, fe’l – so‘z turkumlaridir.

7-mashq. Matnni o‘qing.
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering.
Ma’nolarini tushuntiring.



Qorli tog‘

Biz yakshanba kuni sinfimiz o‘quvchilari bilan birgalikda **Chimyon tog‘iga** bordik. Tog‘ga qalin **qor** yog‘gan, kun **sovuq** edi. Tog‘ cho‘qqisi oppoq qor va bulutlar bilan **qoplanganini** ko‘rib zavqlandik.

Tog‘ etagida bolalar **chana** uchishardi. Jamshid, Sarvar va Ravshan tog‘ **manzarasining** rasmini chizishdi. Javlon va Salim **qorbobo** yasashdi. **Biz** maza qilib dam oldik.

8-mashq. O‘qing.
Avval shaxs-narsani, keyin belgini, so‘ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so‘zlarni yozing. Ularga so‘roq bering.

Orastalik haqida

Imron 3-sinfda o‘qiydi. Sinfda 33 nafar o‘quvchi tahsil oladi. “O‘qish savodxonligi” darslarining birida o‘qituvchi orasta va tartibli bola qanday bo‘lishi kerakligi haqida gapirdi. Imron ustozining gaplarini eshitib, o‘zidan uyalib ketdi. Chunki u o‘zini orasta va tartibli bola deb ayta olmasdi. Imron shu kundan boshlab orasta bo‘laman, deb o‘ziga so‘z berdi.



Uyga borgach, portfelini o‘z joyiga qo‘ydi. Kiyimlarini shkafga ildi. Oshxonaga kirib, u yerni tartibga keltirdi. Onasi Imronning qilgan ishlaridan xursand bo‘ldi.

Namuna:
Shaxs-narsani bildirgan so‘zlar: Imron, ...
Belgini bildirgan so‘zlar: orasta, ...
Sanoq va tartibni bildirgan so‘zlar: ...
Harakatni bildirgan so‘zlar: ...

9-mashq. Avval shaxs-narsani, keyin belgini, so‘ngra sanoqni va undan keyin harakatni bildirgan so‘zlarni yozing. Ularga so‘roq bering.

Shaxmat – san’at, falsafa, mantiq, hisob ilmlarini o‘zida jamlagan sport turi. U intellektual o‘yinlar ichida eng mukammali va murakkabi hisoblanadi.

Xabaringiz bor, avgust oyida Hindistonning Chennay shahrida o‘tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida terma jamoamiz Olimpiada chempioni degan sharafli nomga sazovor bo‘ldilar.



SHAXMAT so‘ziga sinkveyn tuzing.

1. Nima? –
2. Qanday? –
3. Nima qiladi? –
4. Gap.
5. Ma’nodosh so‘z.

10-mashq. Rasmli diktant.
Berilgan rasm asosida hikoya tuzing va unga sarlavha toping. Tuzgan hikoyangizda shaxs-narsaning nomini, belgisini, sanog‘ini va harakatini bildirgan so‘zlar ishtirok etsin.



11-mashq. Testlarni yeching.

1. Nutq nimalardan tuziladi?

A) gaplardan
B) so‘zlardan
D) harflardan
E) matnlardan

2. Matn nima?

A) Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar
B) nutqning yozma shakli
D) tugallangan fikrni aniqlatuvchi so‘zlar
E) so‘roq gap

3. Kuchli his-hayajonni bildirgan gap qanday gap deb ataladi?

A) undov gap
B) darak gap
D) so‘roq gap
E) buyruq gap



4. Darak gap oxiriga qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

A) nuqta
B) so‘roq belgisi
D) undov belgisi
E) hech qanday belgi qo‘yilmaydi

12-mashq. So‘zlarni o‘qing. So‘roqlar yordamida ot, sifat, son, fe’llarni aniqlab, jadvalni to‘ldiring.

Tish shifokori, loyihachi dizayner, o‘qituvchi, kiydi, qo‘lqop, sakkizta, o‘n, qora, yigirma, tosh, boryapti, yaratadi, olti, archa, bola, yaxshi, yigirma yetti, tayyorlaydi, qorparcha, mustaqil, yurdi, to‘qson, ishchan, ketmaydi, mukammal, inson, daraxt, qadimgi.

Ot	Sifat	Son	Fe’l
Kim? Nima?	Qanday? Qanaqa?	Nechta? Qancha?	Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qiladi?
loyihachi dizayner	qora	sakkizta	tayyorlaydi

Ot so‘z turkumi

13-mashq. She’rdagi ot so‘z turkumlarini so‘roqlar yordamida aniqlang. She’rni ko‘chiring.

R harfiga she’r

Rubob chaldi Ravshanjon,
Ra’no tushdi o‘yinga.
Ra’noning raqslari
Juda ham yoqdi menga.

Abdurahmon Akbar





14-mashq. Rasmli ertakni o‘qing.
Ertakdagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlang.


ning tug‘ilgan kuni bo‘ldi. U tug‘ilgan kuniga do‘stlari

va ni taklif qildi.  dasturxon tuzadi.

ga , ,  va  qo‘ydi. 

 ga shirin yong‘oq,  esa  sovg‘a qildi. ,

 va   ichib, mazali  yeyishdi.

Keyin esa uzoq vaqtgacha xursandchilik qilishdi. Do‘stlarning bo‘lgani qanday yaxshi.

Gulnora Turopova



Shaxs va narsaning nomini bildirib, **Kim?** yoki **Nima?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar **ot** deyiladi. *Tikuvchi, qalam, ota, randa, maktab* kabi so‘zlar ot hisoblanadi.





15-mashq. O‘qing.
So‘zlarga so‘roq bering.
So‘zlarni guruhga ajratib yozing.

Qo‘shiq, kun, sinf, chegarachi, yozuvchi, yomg‘ir, jo‘ja, mehnat, stul, ona, quyosh, kuchuk, bo‘yoq, bobo, gul, globus, uchuvchi, sport.

Namuna:
Shaxs: Kim? Chegarachi, …
Narsa: Nima? Qo‘shiq, …

16-mashq. Berilgan so‘zlardan asosdosh so‘zlar hosil qiling. Ularga so‘roq bering.

Namuna: *Ov-ovla, ovchi, ovsiz.*



Otlarning ma'no turlari

17-mashq. O'qing.
Ular qaysi so'z turkumi ekanini ayting. Har bir so'z guruhiga o'zingiz yana uchtadan so'z yozing.

Shaxslar:
Kimlar?
O'qituvchi,
...

Ish qurollari:
Nimalar?
Ketmon,
...

Qushlar:
Nimalar?
Bulbul,
...

Hayvonlar:
Nimalar?
Ot,
...

Tabiat hodisalari nomlari:
Nima?
Chaqmoq,
...



Shaxs nomini bildirgan otlar **Kim?** so'rog'iga javob bo'ladi. Narsa-buyumlar nomi (hayvonlar, turli tabiat hodisalar)ni bildirgan otlar **Nima?** so'rog'iga javob bo'ladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI
№ 61
-14- 12 2023



18-mashq. She'rni o'qing.
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.
She'rni yoddan yozishga tayyorlaning.

Shirin burun

– Bilmam qanday turibsiz
Bu suronda, **Qorbobo?**
Sovuq qotmadingizmi
Qorbo'ronda, **Qorbobo?**

– Yaralganmán **qor, muzdan,**
Sovuq o'tmas bu jondan.
Faqat **sabzi** burnim-chun
Hadigim bor **quyondan.**

Turob Yusuf



19-mashq. O'qing. Har bir so'zga so'roq bering.
Ularning qaysi so'z turkumiga oid ekanini ayting.

Farzand, vulqon, shifokor, ona, kutubxonachi, vokzal, metro, avtobus, bo'ron, zilzila, nabira, cho'pon, tikuvchi, odam, bo'ron, o'quvchi, aravakash, velosiped.

So'zlarni quyidagicha guruhlarga ajratib yozing:

1. Tabiat hodisalarini bildiruvchi otlar: vulqon, ...
2. Transport vositalarini bildiruvchi otlar: metro, ...
3. Shaxslarni bildiruvchi otlar: farzand, ...
4. Kishilarning kasbini bildiruvchi otlar: shifokor, ...

20-mashq. Chiziqlar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Qo'ygan so'zlaringiz qaysi so'z turkumiga oidligini ayting.

1. _____ doim el xizmatida, bemorlarni davolaydi.
2. _____ qattiq esib hamma yoqni to'zitdi.
3. _____ _____ darsi boshlangach, _____, _____, _____ parta ustiga qo'ydilar.
4. Oshxonada onam _____, _____, _____ yuvdilar.



Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

21-mashq. Rasmlarga qarang.
Har bir qatordagi rasmlarga umumiy nom bering.
Berilgan rasmlardagi so‘zlarni qatnashtirib, gap tuzing.

Namuna: Dadam bozordan mashina uchun ehtiyot qismlari, onam esa dehqon bozoridan ro‘zg‘or uchun sabzavotlar sotib oldilar.

1.  ,  ,  – ...

2.  ,  ,  – ...

3.  ,  ,  – ...

4.  ,  – ...







5. , , – ...

22-mashq. "Mening yutuqlarim" mavzusida kichik matn yozing.

1. Men ———————— erishganman.
2. Men ———————— bajara olaman.
3. Men ———————— bir haftada erishganman!
4. Men ———————— bir yilda erishganman!

Namuna: Men shaxmat o'ynay olaman. Bu – mening yutug'im!

23-mashq. So'zlarni bir-biriga bog'lab, maqollarni to'g'ri o'qing va ko'chiring.

1. Duo olma, oltin ol!
2. Baxt mehnat keltirar.
3. Rohat, mehnatning tagi mehnat.
4. Dangasa ishtaha ochar, ish ishdan qochar.
5. Ertanga ishni, bugungi qo'yma!

Otlarning ma'no turlari

24-mashq. Qavs ichida berilgan so'zlarga so'roq bering. Qavslarni ochib, gaplarni ko'chiring.

1. (Bobom) sakson yoshga to'ldilar. 2. (Buvim) kashtani ko'zoynaksiz tikadi. 3. (Otam) – ilg'or ishchi. 4. (Opam) bolalar bog'chasida ishlaydi. 5. (Akam) Toshkentda o'qiydi. 6. (Opam) to'garakka qatnashadi. 7. (Ukam) birinchi sinfda o'qiydi. 8. (Singlim) bolalar bog'chasiga boradi. 9. (Xolam) kutubxonada ishlaydi. 10. (Tog'am) – traktorchi. 11. Bu o'yinni (o'rtog'im) o'rgatdi. 12. Umar mening (do'stim). Sanobar – (dugonam).

25-mashq. O'qing.
Avval Kim? Kimlar? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni, keyin Nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni ko'chirib yozing.

Yosh dorbozlar



Yon qo'shnimiz Anvar, O'ktam
Dorga ixlos qo'ygan ko'pdan.
Tutga arqon tortib bog'lar
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.

Masxaraboz Karimberdi
Qani, qarsak chaling, derdi.
Oyoq serpib kuyga moslar –
Yosh dorbozlar, yosh dorbozlar.

Tursunboy Adashboyev

26-mashq. O'qing.
So'zlarning har biriga so'roq bering. Ular qaysi so'z turkumiga oid ekanini ayting: jo'xori, olma, behi, boychechak, lola, shaftoli, chuchmoma, uzum, banan, mosh, atirgul, olxo'ri. So'zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

Donlar	Mevalar	Gullar
...	...	...

27-mashq. Berilgan so'zlarga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar qo'shib yozing. Ikkita bir-biriga bog'liq gap tuzing.

Masalan: Oshxona va *deraza* so'zlari bitta gapda kelsin.
Oshxonamizning derazasi ochiq qolibdi, yopib qo'ydim,

1. Oshxona;
2. Deraza;
3. Kitob;
4. Qalam;
5. Mashina;
6. Radio.



Otlar. Narsa, o'simlik, tabiat hodisalari, o'quv qurollari nomlari



28-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va eslab qolganlaringizni yoddan daftaringizga yozing.

1. Kapalak, kamalak, laylak, elak, etak, choynak, telpak, terak, g'altak, ertak.
2. Tarbiyachi, ustoz, futbolchi, bola, farzand, ona, buvi, qo'shni, sportchi.



29-mashq. Berilgan so'zlarga mos qo'shimchalar qo'shing. Qaysi so'zlar Kim? so'rog'iga javob bo'lyapti?

sayohat	-kor,
paxta	-dosh,
tosh	-chi,
zamon	-loq,
chaman	-zor,



30-mashq. Gaplardagi har bir so'zga so'roq bering va otlarni aniqlang.

1. Chumchuqlar daraxt, bino va boshqa joylarga in quradi.
2. Men bugun uyimga tipratikan olib keldim.
3. Barcha sinfda o'qituvchi va o'quvchilarga stol, stul, yozishlari uchun doska o'rnatilgan.
4. Bahorda tog'dagi qorlar tez erigani sababli daryolar to'lib oqadi.

5. Bilim olish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatlidir.
6. Archa qishning qahratoniga bardosh beradi.
7. Chaqmoq chaqib, yomg‘ir sharros quydi.

31-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligingizdagi quyidagi she’rni ko‘chiring. Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni yozing, tagiga chizing.

Sherzodbek bilan savol-javob

– U nimadir, uy ichida uy quradi?
U nimadir, oyog‘i yo‘q, yuradi?
– Qaldirg‘och uy ichiga uy quradi,
U ilondir, oyog‘i yo‘q, yuradi.

– U nimadir, xaltasida bolasi?
U nimadir, yong‘oq chaqar bolg‘asiz?
– U kenguru, xaltasida bolasi,
U olmaxon, yong‘oq chaqar bolg‘asiz.

– U nimadir, tarozi yo‘q, toshi bor?
U nimadir, podsho emas, toji bor?
– U toshbaqa, tarozi yo‘q, toshi bor,
U xo‘rozdir, podsho emas, toji bor.



– U nimadir, qanotlari gullagan?
U nimadir, doim bo‘ri quvlagan?
– U tovusdir, qanotlari gullagan,
U quyondir, doim bo‘ri quvlagan.

– Qaydan bilding bu savollar javobin?
– Qo‘limdadir, dada, doim kitobim!

Dilshod Rajab

Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar

32-mashq. Ertakni o‘qing. Ertakning oxirini siz o‘z talqiningizda yakunlang.

Do‘stlik g‘olib bo‘ldi

(Ertak)

Oppoq qor bilan qoplangan o‘rmonda jimjitlik hukmron. Archazorlar orasidagi inlarda quyon va quyonchalar Yangi yilni kutishga hozirlik ko‘rishdi. Biroq och bo‘ri bilan tulki quyonlarning Yangi yilni kutishlariga to‘sqinlik qilishdi.



Shunda o‘rmondagi hayvonlar o‘zaro maslahatlashdilar. Bo‘ri bilan tulkining yovuz niyatlarini puchga chiqarmoqchi bo‘lishdi. Ular o‘rmon ichidagi bir chuqurlik ustiga shox-shabba tashlab, ustini yopib qo‘yishdi. Kechasi qor yog‘di. Chuqurning usti xuddi tekis yerdek bo‘lib qoldi. Bo‘ri bilan tulki yo‘lda kelayotib chuqurga tushib ketishdi. Atrofda berkinib turgan hayvonlar ularning ustidan rosa kulishdi.

Bo‘ri bilan tulki ularga yolvorishdi. Endi hecham yomonlik qilmaslikka so‘z berishdi. Hayvonlar ularni ozod qilishdi. Hozir o‘rmondagi hamma hayvonlar do‘st-inoq yashashmoqda.

Nima deb o‘ylaysiz, bo‘ri va tulki boshqa hayvonlar bilan ahil yashay oladimi? Ertakdagi Nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni topib yozing.



33-mashq. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni o‘qing. Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

1. Tovuqlarga, don, mehr bilan, sepadi, Xolida.
2. Ra’no, parvarishlaydi, gullarni, yaxshi.
3. Tuzatadi, Shohruh, velosipedini, tez.
4. Kutubxonaga, Dono, kitobsevar, a’zo bo‘ldi.



34-mashq. So‘zlarni o‘qing. Har bir so‘zga so‘roq bering. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni ko‘chirib yozing.

Quyosh, oldi, bola, uch, qattiq, olma, odobli, kitob, meva, o‘n, chiroyli, yozadi, xat, oq, besh, o‘ynadi, betartib, shifokor, daftar, ketmon, bilimdon, kompyuter, sakkizinchi, lola.

Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar

35-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligingizdagi quyidagi ertakdan parchani ko‘chiring. Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni yozing, tagiga chizing.

Chumoli “xazina”dan xursand bo‘lib ketibdi. U o‘ylab o‘tirmasdan, zil-zambil topilmani bir amallab yelkasiga olibdi-da, inqilab-sinqillab ini tomon yo‘rg‘alabdi. U qorong‘i tushmasdan uyga yetib borish uchun to‘xtamay yurar, yelkasidagi yuk esa ezgandan ezib borar edi.

– Namuncha o‘zingni qiynamasang, meni shu yerga tashlab keta qol! – deb yolvordi Bug‘doy.

– Agar seni tashlab ketsam, bola-chaqamiz bilan qishda och qolamiz, – debdi Chumoli chuqur nafas olib. – Biz juda ko‘pchilikmiz. Har birimiz qishga ozuqa topishimiz kerak.

Sizningcha, hayotda chumoli kabi mehnatkash insonlar ko‘pmi? Ulardan kimlarni bilasiz?



Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

36-mashq. **Berilgan rasmlar orasidan nomlari Kim? va Nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topib yozing.**



Namuna: *Kim? Bola, …*
Nima? Qorparcha, …


Shu so‘zlardan 3-4 tasini mazmun jihatidan bog‘lab, bitta gap tuzing.

37-mashq. “Men tabiatni asrashga mas’ulman” mavzusida kichik matn tuzing. Siz hayvonlar va yashil tabiatga qanday mehribonlik va yaxshilik qilishingiz mumkin? Misollar keltirib yozing.

Mening foydam	
Hayvonlarga	Yashil tabiatga

Matndan *Kim? Kimlar? Nima? Nimalar?* so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni aniqlang va tagiga tegishlicha chizing.

38-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligidagi mikrob, virus va Salomat qiz haqida ertakdan Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping va ko‘chiring.



Hayvon va parranda nomini bildirgan otlar

39-mashq. “Maqtanchoq ayiq” ertagini o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chirib yozing.

Ayiq do‘stlariga maqtandi. U bugun **do‘stlarini** asal bilan **mehmon** qilmoqchi bo‘ldi.

Ayiq qo‘shni qishloqdagi **asalari qutilari** atrofida ko‘p aylandi. Bir qutini ochmoqchi bo‘ldi. **Asalarilar** buni sezib qolib, ayiqni rosa talashdi. **Ayiq** o‘zini suvga tashlab arilardan qutulib qoldi. U **do‘stlari** oldida xijolat bo‘ldi.

40-mashq. “Beshinchisi ortiqcha” o‘yini. Hayvonlar orasidagi farq qiluvchi hayvonlarni topib yozing. Uy hayvonlariga nom qo‘ying va ular ishtirokida ikkita gap yozing.





Hayvon va parrandalarga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.

41-mashq. Hikoyani o'zingiz davom ettiring. Kerakli o'rinlarga tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Kishilarning ismi va hayvonlarning nomini bosh harf bilan yozing.

Mening mosh va olapar ismli mushugim va kuchugim bor ular judayam ziyrak va ahil har kuni maktabdan kelsam, yugurib chiqib meni kutib olishadi mosh xuddi insonlardek mehribon meni juda yaxshi tushunadi olapar esa chaqqon va vafodor. Ukam odil negadir bu jonivorlarni yoqtirmaydi bir kuni uyda yo'qligimda...



42-mashq. O'zingiz yoki qo'shningizning boqiladigan uy hayvonlari va parrandalari nomini ayting. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Hayvon va parrandalar nomini bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

43-mashq. Rasmlarda berilgan uy hayvonlarining ovoziga taqlid qiling. Ularning nomlarini yozing. Bu so‘zlar qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanini ayting va ular ishtirokida gaplar tuzing.



44-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. Topgan javoblaringizdagi hayvonlarga nom qo‘ying. O‘zingizga yoqqan topishmoqlarning uchtasini husnixat bilan ko‘chiring.

Meni qancha urishsa ham,
Sira xafa bo‘lmayman.
Eng og‘ir ishlarni men,
Bajarib o‘rganganman.





Sutimdan zo‘r sut topilmas,
Juda foyda go‘daklarga.
To‘qing paypoq, jemper, nimcha,
Junim issiq, bari senga.

Ming bir dardga davodir,
Qimron sutim ichsangiz.
Sahrolarda kezaman,
Chidamliman bilsangiz.





Mendan yaxshi qo‘riqchi
Topilmaydi olamda.
Sadoqatli, eng yaqin,
Do‘st bo‘laman odamga.


45-mashq. She’rga mos sarlavha topib ko‘chiring. She’rdagi hayvonlarga nom qo‘ying.

Qayerdan shovqin turdi?
Itlar vovullab ketdi.
Birdan shovqin avj olib,
Otlar gijinglab ketdi.
Sigir chiqdi “Mo‘-mo‘“lab
“Be-Bee”lab chiqdi qo‘ylar.
Unga echki qo‘shilib,
“Mee”lab qo‘ydi bir sakrab.

Hech tushunib bo‘lmaydi,
Har xil ovoz har joydan.
Bu qanday hovli ekan?
Keling, ko‘raylik, do‘stlar.
Mana qarang, molxona,
Pichanxona narida.
Orqasida it uchun,
Qurilgan kichik uya.

Mana, sigir onasi,
Buzoq esa bolasi.
Otning yonida toychoq,
Qo‘y oldida qo‘zichoq.
Tuya ham bo‘talog‘in,
Erkalab turar doim.
Echki uloqchasiga,
Mehrin beradi borin.

Uyni qo‘riqlab turar,
It bilan kuchukchasi.
Hangrab turadi eshak,
Ko‘rib xo‘tikchasini.



Birdan sichqonni ko‘rib,
Mushukvoy qochib ketdi.
Hovli ajoyib ekan,
O‘rgangim kelib ketdi.

Umida Aydarova

Topshiriqlarni bajaring.

1. She’r muallifini yozing.
2. She’rdagi misralar sonini yozing.
3. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni toping.
4. She’rdagi tinish belgilari nomini yozing.
5. She’rdagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni yozing.



46-mashq. Aralash berilgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yib, hayvonlarga nom bering va ko‘chiring. Ular ishtirokida ikkita gap tuzing.

UTYA, QYOOTCH, RISIG, QZO‘ICHQO.
KCHUKU, KUSHMU.

Otlarda birlik va ko'plik

47-mashq. Jadvalga mos so'zlar toping. Ulardan so'z birikmalari tuzib yozing. Tanlagan so'zlaringiz qanday so'roqlarga javob bo'lyapti? Ularning farqli tomonlarini ayting.

Birlikdagi otlar

Ko'plikdagi otlar

Namuna: Birlikdagi otlar – qiziq kitob.
Ko'plikdagi otlar: qalamlar, rangli qalamlar.

Shaxs va narsaning nomini bildirib, **Kim? Kimlar?** yoki **Nima? Nimalar?** so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar **ot** deyiladi. *Kitob, qalam, maktab, ona, bilim, bolalar, varrak* kabi so'zlar ot hisoblanadi.



48-mashq. Rasmda berilgan gap turlarining qoidalarini esga oling. Har bir gap turiga mos gaplar tuzing.

Darak gap

So‘roq gap

His-hayajon gap

Buyruq gap

Tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozing. Ushbu gaplaringizdan *Kim? Kimlar? Nima? Nimalar?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni aniqlang va ularning tagiga chizing.

49-mashq. Ot so‘z turkumi haqidagi bilimlaringizni mustahkamlang. Bulutlar ichidagi savollarga mos beshtadan so‘z topib yozing.

Masalan:

Kim? – ..., ..., ..., ..., ...
Nima? – ..., ..., ..., ..., ...

Kimlar? – ..., ..., ..., ..., ...
Nimalar? – ..., ..., ..., ..., ...

50-mashq. “Askar kimni qo‘riqlaydi?” hikoyasidagi gaplarga e’tibor bering. Kim? Kimlar? Nima? Nimalar? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni toping.

Askarlar doim Vatan xizmatidalar. To‘g‘ri, dunyoda yaxshi odamlar ko‘p. Biroq boshqa elning odami yurtimizga yomon niyatda kelsa-chi? Chegara shuning uchun kerak. Askarlar shu sabab chegarani qo‘riqlab turadilar. Har bir askar o‘z Vatanini sidqidildan qo‘riqlashi kerak.

Namuna: *Kim? – Odam.*
Kimlar? – Askarlar.



Birlik va ko'plikdagi otlarni farqlash

51-mashq. Matnni o'qing.
Birlik va ko'plikdagi otlarni farqlashda sizga nima yordam berdi? Birlikdagi va ko'plikdagi otlarning tagiga chizing. Matnni husnixat bilan ko'chiring.

Hovlimiz yaqinida poliz bor. U yerda chigirtkalar ko'p. Ular ekinga zarar yetkazadi. Chigirtkalarni yo'qotish zarur. Bu ishda bizga qushlar yordam beradi. Qushlar galalashib uchib keladi. Ular chigirtkalarni terib yeydi. Chigirtka – zararli hasharot.

Otlar ko'plikda va birlikda qo'llaniladi.
Birlikdagi otlar **Kim? Nima?**
ko'plikdagi otlar **Kimlar? Nimalar?**
so'roqlariga javob bo'ladi.
Masalan: **Kim?** – O'quvchi. **Kimlar?** – O'quvchilar. **Nima?** – Kitob. **Nimalar?** – Kitoblar.



52-mashq. "O'qish savodxonligi" darsligingizdagi "Qushlar qanday inlarda yashaydilar?" hikoyasida keltirilgan birlikdagi va ko'plikdagi otlarni topib yozing. Sizningcha, qushlarning bo'lmasligi insonlarga qanday foyda yoki zarar keltiradi?

Qushlar qanday inlarda yashaydilar?

Baliqchi qush uchib yurib, inlarni birma-bir tomosha qilib chiqquncha, uning tuxum qo‘yadigan payti ham kelib qolibdi. Shunda u tuxumlarini o‘zi yashaydigan qirg‘oq bo‘yidagi yerga qo‘yibdi va shu yerda jo‘jalarini parvarishlab o‘stiribdi.

Qushlar polaponlari uchun har xil in quradi. Qarg‘a shox-shabbalarni yig‘ib, chumchuq o‘t-o‘lanlardan in yasaydi. Yovvoyi tovuqlar chuqur o‘ra qazib, tepalik quradi. Qaldirg‘ochlar esa loydan in quradi. Qirg‘oq qaldirg‘ochlari qirg‘oq bo‘ylarida o‘zlariga in qaziydi. Boyqush g‘ovak joylarni topib yashaydi, kakku tuxumlarini begona qushlarning iniga tashlab ketadi, baliqchi qush esa tuxumlarini qirg‘oq bo‘yidagi qum yoki toshlar ustiga qo‘yadi.



Siz qanday qushlarning inini ko‘rgansiz?
Qushlarga o‘zingiz in qurishga yordam berganmisiz?



53-mashq. Matnni o‘qing va husnixat bilan ko‘chiring. Birlik va ko‘plikdagi otlarni guruhlarga ajratib yozing.

Doktor va uning hayvonlari

Bir doktor bor edi. U juda rahmdil odam bo‘lib, ismi Voyjonim edi.

Doktor hammadan ko‘ra hayvonlarni yaxshi ko‘rardi. Uning javonida quyonlar yashardi. Shkafida olmaxon, divanida tipratikan, sandig‘ida oq sichqonlar turardi. Shu uyning o‘zida qari ot, uning yonida esa sigir yashardi...

Hatto doktorga ko‘rinish uchun dunyoning hamma yeridan bemor cho‘ponlar, kasal baliqchilar, o‘tin kesuvchilar, dehqonlar ham kelishardi. Doktor ularning har qaysisiga dori berar, bemorlar darrov tuzalib ketishardi.

Namuna: *Birlikdagi otlar:* *doktor* *Ko‘plikdagi otlar:* *quyonlar*



54-mashq. Berilgan so‘zlarni birlik va ko‘plikka ajratib yozing.

Baliq, ruchka, stol, qalamlar, kitoblar, parda, taroqlar, daraxtlar, o‘rik, gullar, chiroq, qog‘oz, sumkalar, etik, quti, tishlar, uzuk, qush, qaychi, piyolalar.

Birlikdagi otlar: **Ko‘plikdagi otlar:**

Birlikdagi otlardan ko‘plikdagi otlarni hosil qilish

55-mashq. Rasmda tasvirlangan shaxs va narsalarning nomini yozing. Shu otlarni qatnashtirib, gaplar tuzing.



Piramida asosida *uy* so‘ziga 3-4 ta gap tuzing. Tuzgan gaplaringizning har keyingisida so‘zlar bittadan ortib borsin.

56-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlar qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Rustam … chaldi. 2. … janubga uchib ketdilar. 3. Shokir akasiga … yozdi. 4. … yana ham obod bo'lmoqda. 5. … sayohatga chiqdilar. 6. … – bilim manbai. 7. … savollarga to'liq javob berdi. 8. … qushlarga oid kitob o'qidik. 9. … gullarga suv quydi. 10. Tanaffusda … o'ynadik.

Foydalanish uchun so'zlar: qushlar, rubob, qishlog'imiz, maktub, kitob, bolalar, voleybol, biz, navbatchi, Zumrad.

57-mashq. Rasmlarga qarang. Kim? va Nimalar? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarni ikki ustunga yozing.

Kim?	Nimalar?




BANK

Birlikdagi otlardan ko‘plikdagi otlarni hosil qilish

Otlar birlik (o‘quvchi, kitob) va ko‘plik (o‘quvchilar, kitoblar) shaklida qo‘llanadi. Birlikdagi otlar **Kim?** yoki **Nima?** so‘rog‘iga, ko‘plikdagi otlar **Kimlar?** yoki **Nimalar?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi. **-lar** qo‘shimchasi birlikdagi otdan ko‘plikdagi otni hosil qiladi.



58-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Qishki o‘rmon

Tushgan kabi go‘yo **suratga**
Toshdek qotar qishda **o‘rmonlar.**
Eshitilmas **qushlar** qo‘shig‘i,
Uyquga bosh qo‘yar **hayvonlar.**
Daraxtlar-u daryolar, ko‘llar
Qor va **muzdan** kiyishar **ko‘ylak.**
Tabiatning mo‘jizasidan
Hayajonga ko‘milar **yurak.**



Ot yasovchi qo‘shimchalar

59-mashq. O‘qing.
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini aniqlang.
So‘z asosini bir ustunga, so‘z yasovchi qo‘shimchani olgan otni ikkinchi ustunga yozing. Ularning ma’nosi o‘zgarayotganiga e’tibor bering.

1. Paxtakor dalada paxta termoqda.
2. Toshloq yerda ekinlar yaxshi unmaydi.
3. Dasturchi yangi ofisda o‘z ishini boshladi.
4. Hozir lolazorga borsangiz, ko‘zingiz qamashadi.
5. Sinfdoshim Nilufar – a’lochi qiz.
6. Sportchilarimizga yetadigani yo‘q!

Namuna: paxta – paxtakor.

-chi, -kor, -dosh, -zor, -loq qo‘shimchalari so‘z asosiga qo‘shilib ot yasaydi.
-chi, -kor ,-dosh qo‘shimchalari shaxs ma’nosini, **-zor, -loq** qo‘shimchalari esa o‘rin-joy ma’nosini bildirgan otlar yasaydi: sinf – sinfdosh, bino – binokor, o‘t – o‘tloq, paxta – paxtazor





60-mashq. Ot yasovchi qo‘shimchali so‘zlarning asos va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni ajrating va ko‘chirib yozing.

1. Vatandosh, zamondosh, sirdosh, kasbdosh, suhbatdosh.
2. Toshloq, qumloq, o‘tloq, yaylov.
3. Paxtazor, gulzor, lolazor, bedazor.
4. Bastakor, pillakor, binokor, tadbirkor.
5. Sayohatchi, kombaynchi, quruvchi, traktorchi.

***O‘qituvchi* so‘ziga sinkveyn tuzing.**

O‘qituvchi	
Kim?	
Qanday?	
Nima qiladi?	
Gap	
Ma’nodosh so‘z	

Namuna:

1. **Nima?** Yer
2. **Qanday?** Serhosil, unumdor.
3. **Nima qiladi?** To‘ydiradi, boqadi, beradi.
4. **Gap.** Yerni begona o‘tlardan tozala.
5. **Ma’nodosh so‘z.** Zamin.

61-mashq. Quyidagi fikrlarga mos javoblarni rasmlardan topib, daftaringizga yozing.

1. Bolalarga ta'lim-tarbiya beradi. – ...
2. Insonlarni davolaydi. – ...
3. Chiroyli imoratlar quradi. – ...
4. Vatanni qo'riqlaydi. – ...
5. Turli-tuman noz-ne'matlar yetishtiradi. – ...
6. Odamlarning uzog'ini yaqin qiladi. – ...










62-mashq.
Testlarni yeching.

1. Shaxs ma'nosini bildiruvchi ot yasovchi qo'shimchani toping.

A) -kor D) -loq
B) -zor E) -li

2. O'rin-joy ma'nosini bildirgan otni belgilang.

A) Surnaychi D) Paxtakor
B) O'tloq E) San'atkor

3. Qaysi qatorda faqat ot yasovchi qo'shimchalar berilgan?

A) -chi, -loq D) -kor, -lar
B) -zor, -lar E) -chi, -ga

4. Qaysi gapda so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil bo'lgan ot qatnashgan?

A) Qushlar uchun qafasda yashash qiyin.
B) Biz o'qiydigan maktab katta.
D) Yomg'ir gulzor yuzini yuvdi.
E) Ekinlar tuproqdan yaxshi oziqlanadi.

5. Shaxs ma'nosini bildiruvchi ot qatnashgan gapni toping.

A) Oyim, dadam va men sayohatga bordik.
B) Paxtakor hosil olish uchun ko'p mehnat qiladi.
D) Bulbullar gulzorda yashaydi.
E) Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir.

63-mashq. Matnni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring. Birlikda berilgan otlarni ko‘plikdagi otlarga o‘zgartirsa bo‘ladimi? Ularga ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘yib ko‘ring. Kiritilgan o‘zgartirishlar matn mazmuniga ta’sir qiladimi?

Yakshanbada Chimyonga bordik. Sovuq aytarli qattiq emas. Qalin qor yog‘gan. Tog‘ cho‘qqisini pag‘a-pag‘a bulutlar qoplagan. Quyosh bulutlar orasidan nur sochmoqda. Tog‘ etagidagi tepalikda chana uchayotgan bolalarni va katta yoshdagi kishilarni ko‘rdik. Yigit va qizlar tog‘ cho‘qqisi tomon ko‘tarilmoqda. Ular chang‘ida pastga tushadilar.





64-mashq. Gaplarni o‘qing. Gapdagi otlarni toping. Ularga qanday qo‘shimchalar qo‘shilgan?

1. Paxtakor dalada oppoq, lo‘ppi bo‘lib ochilgan paxtalarga qaradi.
2. O‘tloq yam-yashil maysa bilan qoplangan edi.



65-mashq. Berilgan so‘zlarni ko‘chiring. Ot yasovchi qo‘shimchalarni aniqlab, tegishlicha belgilang.

Suhbatdosh, chaqimchi, lolazor, g‘allakor, kutubxonachi, karnaychi, gulzor, bastakor, toshloq, chamanzor, qumloq, sinfdosh, mahalladosh, pillakor, davrdosh, zamondosh, g‘aznachi.

Namuna: Suhbatdosh, …



66- mashq. Mustaqil ravishda jadvalni to‘ldiring.

Ot	Ot + ot yasovchi qo‘simcha
Iz	**Izdosh**
…	**…**



67-mashq. Nuqtalar o‘rniga ot yasovchi qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

Tuz…, ish..., terim..., ijod…, teng…, paxta…, bug‘doy..., tosh…, gul..., chegara…, qum… .

Ot yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

68-mashq. **Berilgan rasmlarni ketma-ketlikda joylashtiring. Ular asosida matn tuzing. Matnga sarlavha qo‘ying.**



Tuzgan matningizni yozing. So‘zlardagi ot yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

69-mashq. **Berilgan rasmdagi misollarni yeching. Har bir javobga harflar mos keluvchi ot toping va shu so‘zlarga ot yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib yozing.**



Masalan: **qurbaqaning misolining javobi 4. Javobga mos ravishda 4 ta harfdan iborat so‘z toping va unga mos keluvchi ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shib, uni yozing.** *Sinf – sinfdosh* **kabi.**



70-mashq. Quyidagi so‘zlarga -chi, -kor, -zor ot yasovchi qo‘shimchalarini qo‘shib so‘z hosil qiling va 4 ta gap tuzing.

bino, qo‘shiq, temir, gul

1. **Birinchi ustundagi so‘zlarga so‘roq bering.**
2. **Ular qaysi so‘z turkumiga oid?**
3. **Qo‘shimcha qo‘shilgan so‘zlarga so‘roq bering.**
4. **Qanday ma’noli so‘zlar hosil bo‘ldi?**



71-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qismlarga bo‘lib, asos va qo‘shimchalarini belgilang. Asosni belgilash uchun yarim oy, qo‘shimcha uchun yarim uchburchak belgisini chizing. Paxtadan olinadigan mahsulotlarni yozing.

Chaman-chaman paxtazor
Yurtimizga iftixor.
Sendan baxtin topadi
Mehnat qilib paxtakor.

Po‘lat Mo‘min

Ot yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

Yasama otlarning imlosi

72-mashq. Bilimingizni sinab ko‘ring.

1. Qanday so‘zlar ot deyiladi?
2. Otlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Birlikdagi otlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
4. Birlik va ko‘plikdagi otlar bir-biridan qanday farqlanadi?
5. Qaysi so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida otlar yasaladi?
6. Qanday otlar bosh (katta) harf bilan yoziladi?



73-mashq. Berilgan otlarga ot yasovchi -chi, -kor, -dosh, -zor, -loq qo‘shimchalaridan mosini qo‘shib, otlar yasang.

Quruv, shifo, ijod, sholi, bino, pardoz, atlas, archa, suvoq, qum, sinf, sayohat, tosh, fikr, gul.

Namuna: Ijodkor, sholikor…

Hosil bo‘lgan otlar ishtirokida ikkita gap tuzing. Tuzgan gaplaringizdagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni ayting.

74-mashq. **“Moychechak” gulidagi ot yasovchi qo‘shimchalarga so‘zlar topib yozing.**



-chi, -zor, -dosh, -kor, -k, -q, – ot yasovchi qo‘shimchalardir.

75-mashq. **So‘zlarga ot yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.**
Berilgan so‘zlar qaysi so‘z turkumiga oid? Hosil bo‘lgan so‘zlar-chi? Qaysi so‘zlar tarkibida o‘zgarish bo‘ldi? Nima uchun?

Kura – ... kurak	tara – ... taroq
Beza – ...	bo‘ya – ...
Tila – ...	so‘ra – ...
Ela – ...	buta – ...

76-mashq. Quyidagi testlarni yeching va o‘zingiz mustaqil mavzuga oid uchta test tuzib yozing.

1. **Asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalardan iborat so‘zlarni belgilang.**

A) Feruzaning, bilimsiz, ko‘chada
B) navbatchi, tengdosh, baxtli
D) tantanali, futbolga, baliqchi
E) chiroyli, oqibatli, sayohatni

2. **“Dengiz... uzoq safarga otlanibdi”. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchani qo‘ying.**

A) -chi
B) -li
D) -dosh
E) -la

3. **-loq qo‘shimchasi yordamida yasalgan so‘zni topng.**

A) faoliyat
B) chiroyli
D) toshloq
E) singlim

4. **Ot yasovchi qo‘shimchali ikkita so‘z ishtirok etgan gapni belgilang.**

A) Odobni odobsizdan o‘rgan.
B) Ashulachi qo‘shiqni baland aytdi.
D) Shifokor ishchini davoladi.
E) Uning uch o‘g‘li ham ishsiz edi.

77-mashq. Bilimingizni sinab ko‘ring.

1. Otlarning ma’nosiga ko‘ra turlarini ayting.
2. Qanday otlarni bosh harf bilan yozasiz?
3. Otlar gapda boshqa so‘zlar bilan nimalar yordamida bog‘lanadi?
4. Otlar gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?
5. Otlar qaysi qo‘shimchalar yordamida yasaladi?

78-mashq. Berilgan otlardan ma’nodoshlarini tanlab yozing. Shu so‘ziardan ikkita gap tuzing.

Kurak, shifokor, butoq, muallim, taroq, bezak, tabib, bo‘yoq, o‘qituvchi, kishi, inson, shoxcha, tilak, so‘roq, ustoz, odam, savol.

79-mashq. Tadbirkorlik va hunarmandchilikka oid maqollar toping.





80-mashq. **“O‘rnini top” o‘yini. Namuna asosida qo‘shimchalar yozilgan tarqatmalarni o‘z o‘rniga qo‘ying.**

1	kor	2	dosh	3	ga	4	siz
5	chan	6	ning	7	dor	8	li
9	dan	10	zor	11	q	12	da
13	loq	14	chi	15	ni	16	ser

Namuna: *1. Ot yasovchi qo‘shimchalar: 1,*
2. So‘zlarni o‘zaro bog‘lovchi qo‘shimchalar: 3,

81-mashq. *Elak, tilak, bezak, taroq* **so‘zlari ishtirokida bittadan gap tuzing va yozing. Ot yasovchi qo‘shimchalar tagiga chizing.**



Sifat so‘z turkumi

82-mashq. Sifat haqida berilgan she’rni ko‘chiring.

So‘z turkumlari ichida,
Eng go‘zaliman o‘zim.
Qanday? deya so‘rasang,
Yaxshi, – deb tayyor o‘zim,
Maza-ta’mni bildirgum.
Shirin olma, shirin so‘z
Shakling aytib o‘taman.
Ey, dumaloq qisiq ko‘z
Xususiyat bildirsam,
Yomonni qoralayman.
A’lo o‘qi, do‘stginam,
Bilimdonni qutlayman.
A’lochiga “besh” baho
Qizil tusda yaltirar.
Men rassom, bo‘yoqchiman,
Menda ranglar saf tizar.
Men shundayin boy turkum,
So‘zi asal, moy turkum.
Men haqimda bilmasang,
Ahvolingga voy degum.



84-mashq. **Rasm asosida matn tuzing. Tuzgan matningizda qatnashgan sifatlarning tagiga chizing. Matnga mos sarlavha toping.**



Shaxs-narsa belgisini bildirgan so‘zlar sifat deyiladi. Sifatlar **Qanday?** yoki **Qanaqa?** so‘roqlariga javob bo‘ladi. Sifatlar gapda otlarga bog‘lanib keladi: oq kema, katta ko‘cha, yashil bog‘lar…





84-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Sifatlarni aniqlang, ularni o‘zi bog‘lanib kelgan ot bilan birga ko‘chiring. Sifatlarni tushirib qoldirib o‘qing. Qanday o‘zgarish bo‘ldi?

Posbonlar

Dilafruz Shokirova

Bizning posbonlar
Kuchli va botir.
Vatanin sevgan
Bardam, bahodir.

Ular bilan tinch
Keng osmonimiz.
Biz ona yurtning
Mard posbonimiz.



85-mashq. O‘qing. Gaplardagi narsa belgisini bildirgan so‘zlarni yozing. Ularga so‘roq bering.

1. Baland binolar qurilmoqda.
2. Xonadan yoqimli kuy eshitilmoqda.
3. Bolalar yam-yashil o‘tloqda o‘ynadilar.
4. Qizil gullardan guldasta yasadik.
5. Kuchli shamol esmoqda.
6. Quyosh borgan sari balandroq ko‘tarila boshladi.
7. Ulug‘bek archani chiroyli bezatdi.
8. Chiroyli va to‘g‘ri yozish san’atdir.

86-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring. Siz ham mevalardan biriga ta'rif bering. Ta'rifingizda Qanday? Qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ishtirok etsin.

– U bir shirin mevadir,
Ancha dardga davodir.
Po'sti qalin va taxir,
Vitaminga boy axir.
Donalari qip-qizil,
Shirin-u nordon asl.
Eshigin topsang sirin,
Chiqishar birin-ketin.





– Anorning donalari qanday?
– Anorning donalari mayda va ...
– Anorning mazasi qanday?
– Anorning mazasi shirin, ...
– Anorning shakli qanday ...
– Uning shakli dumaloq.
– Anorning po'sti qanday?
– Qalin va ...
– Anor qanday xususiyatga ega?
– Anor foydali, u ...

87-mashq. Rasmlardagi uy hayvonlariga ta’rif bering. Ularning belgilarini ayting va yozing. Ularda qaysi ranglar borligini toping. Ushbu ranglar bor bo‘lsa, aylana ichiga (+) belgisi, yo‘q bo‘lsa (–) belgisini qo‘ying.









88-mashq. Hayvonlarga sifatlar berilgan. Ushbu sifatlarga ega jonzotlarni topib yozing.

1. Chopqir, tuyog‘i qattiq –
2. Ehtiyotkor, ayyor –
3. Kichkina va jingalak yungli –
4. Qulog‘i uzun, epchil –
5. Bo‘yni uzun, o‘txo‘r –
6. Yirtqich, go‘shtxo‘r –

7. Terisi yo‘l-yo‘l, go‘shtxo‘r –
8. Maymoq, asalxo‘r –
9. Qo‘sh o‘rkachli, suvsizlikka chidamli –
10. Uzun xartumli va kuchli –

Foydalanish uchun so‘zlar: *ot, tuya, ayiq, bo‘ri, yo‘lbars, quyon, qo‘zichoq, fil, tulki, jirafa.*



89-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Nomard do‘stdan … dushman yaxshi.
Mard tuzar, … buzar.
… maydonda, kuch bilimda sinaladi.
Ilmli mingni yiqar, … birni.
Kitobsiz aql – … qush.

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi



90-mashq. Sizning kelajakda o‘ylagan barcha orzularingizga yetishishingizdagi muvaffaqiyat kalitingiz nima? Ushbu qahramonlar bergan namunalardan boshqa yana to‘rtta misol yozing. Nima uchun shu kalitlar sizga muvaffaqiyat olib keladi? Fikringizni izohlang.

MUVAFFAQIYAT KALITLARI

Sabr

Ustozga quloq solish

Vazifalarni bajarib borish

Kun tartibiga rioya qilish

Tushunmaganni so‘rash

Takrorlash

Bilganini boshqalarga o‘rgatish

Qunt

Yangilikka intilish

Kitob o‘qish



91-mashq. Quyidagi rasmlardagi farqni toping. Hasharot va hayvonlarning sifatlarini yozing.





Sifatning otga bog‘lanishi


92-mashq. “O‘qish savodxonligi” darsligingizda berilgan matnni o‘qing, sarlavhasini toping.

Ko‘rdingizmi, sodda qush deganimiz, ona kaklik menday bir aqlli cho‘pon bolani qanday chalg‘itib, tuxumlarini, bo‘lajak polaponlarni asrab qoldi.
U ayyormidi, yo‘q, degim keladi. Ona kaklik aqlli edi.

Men o‘shanda, tag‘in ortimga qaytib, uning tuxumlarini olib ketishim mumkin edi. Ammo birinchidan, uyadan ko‘p uzoqlab ketgan edim...

Belgini bildirgan so‘zlarni aniqlang va ularni o‘zi bog‘lanib kelgan ot bilan birgalikda ko‘chiring.

93-mashq. Mos so‘zlarni qo‘yib, so‘z birikmasi tuzing. Tanlagan so‘zlaringiz qaysi so‘roqlarga javob bo‘ladi?



Namuna: *Buyuk Navoiy, ...*

94-mashq. Berilgan matnni ko‘chiring. Belgini bildirgan so‘zlarni topib, tagiga tegishlicha chizing.

Bahorda daraxtlar qiyg‘os gullaydi. Gulkosalar ichiga boshini suqib turgan asalarini ko‘rganmisiz? Ari gul shirasi bilan oziqlanadi, undan asal tayyorlaydi.

Oh, shirin asal juda mazali! Yana uning ko‘p dardlarga davoligi-chi!



95-mashq. **Kichik guruhlarga bo'linib, asalning xususiyatlarini aniqlang. Ularni so'z birikmasi shaklida daftaringizga yozing. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.**





Sifatning ma'no turlari



96-mashq. Har bir qatordagi so'zlardan foydalanib, gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozing. Sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing. Hosil bo'lgan hikoyaga sarlavha toping.

Saida, bordi, ko'rkam, xiyobonga.

Gulzorda, oq, ochilgan, sariq, qizil, gullar.

Daraxtlarda, sayrayapti, qushlar, sayroqi.

Saida, maysalar ustida, o'ynadi, ko'm-ko'k.



97-mashq. Jadvaldagi ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. Tegishli belgini qo'ying.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Sifat deb Kim? Nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarga aytiladi		
Musaffo osmonda kamalak ko'rindi. Ushbu gapda sifat ishtirok etgan.		
Sifatlar ko'p hollarda otga, ba'zida fe'lga bog'lanib keladi.		
Qizil atirgullar qiyg'os ochildi. Ushbu gapda sifat so'z turkumiga oid uchta so'z ishtirok etgan.		
Sifatlar gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.		

98-mashq. Birikmalardagi sifatlarning ma'nosini taqqoslang va ko'chiring.

Qalin kitob – qalin o'rtoq, chiroyli ko'ylak – chiroyli nutq, og'ir yuk – og'ir bola, yaqin yo'l – yaqin dugona, o'tkir pichoq – o'tkir til, shirin qovun – shirin uyqu.



Sifatlar shaxs va narsaning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi.


99-mashq. "Mening uyim qayerda?" deb nomlangan jadvalni to'ldiring. Berilgan so'zlarni mos kataklarga joylang.

rangi	mazasi	shakli	hajmi

Foydalanish uchun so'zlar: toza, qora, mazali, shirin, baland, keng, suvsiz, suvli, mazasiz, yumaloq, to'rtburchak, past, ozg'in, semiz, o'rta, momiq

100-mashq. Boshqotirmani yeching va ko'chiring.

1. Bilimli, a'lochi – ....
2. Ulkan, katta – .....
3. Svetoforning birinchi rangi – .....
4. Tun ..... .
5. Keng emas – .....
6. Paxtaning rangi – .....



101-mashq. Otlarga xos belgini bildirgan sifatlarni tanlab, gaplarni o'qing va yozing.

1. (Zo'r, qudratli) kran (vazmin, og'ir) yuklarni bemalol ko'taradi.
2. (Mayin, kuchli) shamol (xushbo'y, totli) hid taratadi.
3. Qushlarning (xushchaqchaq, yoqimli) ovozi kishiga zavq bag'ishlaydi.

Namuna: Qudratli kran og'ir yuklarni bemalol ko'taradi.

102-mashq. Rasmda tasvirlangan narsalarga mos sifatlarning xil-xususiyatini bildiruvchi so'zlar topib, so'z birikmalari tuzing va yozing.







Namuna: Qizil olma.

103-mashq. **Jadvaldan sifatlarni raqamlar orqali topib, ajratib yozing va 5-6 tasi ishtirokida so'z birikmalari hosil qilib ko'chiring.**

8. Olmaxon	6. Qop-qora	11. Chiroyli	3. Kitobxon	1. Gillar
10. Mazali	2. Telefon	5. Viqorli	18. Yaltiroq	15. Qizil
16 Savat	14. Kompyuter	20. Tiniq	12. Toshloq	19. Past
4 Semiz	17. Archazor	9. Keng	13. Xushbo'y	7. Suyuq

Namuna: *9. Keng uy.*

104-mashq. **Jadvalni to'ldiring va mos so'zlarni qo'yib, so'z birikmasi shaklida yozing.**



Sifat yasovchi qo‘shimchalar

105-mashq. Testlarni yeching.

1. Maza-ta’m sifatlari ishtirok etgan so‘z birikmasini toping.

A) Baland bino
B) Bemaza ovqat
D) Mevali daraxt
E) Shirinso‘z odam

2. Qaysi gapda sifat o‘z ma’nosida qo‘llangan?

A) Yoqimli kuy
B) Mustahkam do‘stlik
D) Shirin so‘z
E) Qattiq arazlamoq

3. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan sifat ishtirok etgan gapni toping.

A) Saida akasining kelganidan xursand.
B) Odamlar bilan iliq munosabatda bo‘ling.
D) Kuchli va baquvvat inson yengilmaydi.
E) Barcha sifatlar o‘z ma’nosida qo‘llangan.

4. Rang-tus bildiruvchi sifatlarni belgilang.

A) Qizil, sariq
B) Mazali, katta
D) Qora, gulli
E) Muloyim, chaqqon



106-mashq. Berilgan rasmlarga sifat yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib, sifat hosil qiling va yozing.








Asos va sifat yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

107-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring. Asos va sifat yasovchi qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

1. Har ikkovimiz ham maroqli suhbatdan maza qilib dam olgan edik. (G‘. G‘ulom) 2. Odobsiz kishilar mo‘tabar bo‘lmaydilar, yuksak falak ularni tubanlashtiradi. (A. Navoiy) 3. Kumush eshik oldida guldor ko‘ylakli ayol paydo bo‘ldi. (“Kabutar sovg‘asi” ertagidan) 4. Men ham, Turdi ham gapdon edik. (P. Mo‘min)

-li, -dor qo‘shimchalari yordamida hosil qilingan sifatlar belgiga egalik ma’nosini, **-siz** qo‘shimchasi yordamida yasalgan sifatlar esa belgiga ega emaslik ma’nosini bildiradi. Masalan: Bilimli (bilimga ega bo‘lgan) bola, jarangdor (yoqimli, baland, jarangli) ovoz; tuzsiz (tuz solinmagan) taom.



108-mashq. Topishmoqlarning javobini toping va daftaringizga ko‘chiring. -li, -dor, -siz so‘z yasovchi qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘lgan sifatlarni aniqlang.

1. Jonsiz, tinglaydi,
   Qo‘lsiz, yozadi,
   Tilsiz, so‘zlaydi.

3. Tili po‘lat shovvoz,
   So‘zlay olmas qog‘ozsiz.

2. Aqlli temir olam kezar.

109-mashq. Otlardan sifatlar hosil qiling. So‘z yasovchi qo‘shimchalarni namunada ko‘rsatilgandek belgilang.

Jarang, muz, rasm, maza, chiroy, shakar, pul, gul, mehr, aql, tuz, chang, meva, bo‘yoq, hosil, sanoq, kimsa, qor.

Namuna: muz – muzsiz, …



So‘z asosiga so‘z yasovchi **-li, -siz, -dor** qo‘shimchalarining qo‘shilishi orqali sifat hosil qilinadi: kuch – kuchsiz, zarb – zarbdor, tur – turli…

110-mashq. Xatoni aniqlang.








1. Bu pomidor, u sho‘r ta’mga ega.
2. Bu sabzi, usiz palov (osh) tayyorlab bo‘lmaydi.
3. Karam qip-qizil bo‘lsa, pishgan bo‘ladi.
4. Piyoz juda shirin, shuning uchun uni hamma ovqatga solamiz.
5. Tarvuzning ichi oppoq bo‘ladi.
6. Bu kartoshka, u juda mazali bo‘ladi.

111-mashq. **She’rni o‘qing.**

Yaxshi nom

Xudoyberdi Komilov

Usta Azim,
Huri chevar.
Qanday go‘zal,
Shirin so‘z.

Hunarlini
Hamma sevar,
Hamma tutar
Yaqin do‘st.

Hunarsizning
Nomi chatoq,
“Bekor, so‘tak,
Quruq, cho‘p”,

Biri “qoloq”,
Biri “shaloq”,
Hunarsizga.
Laqab ko‘p.



“Tahlil qolipi” mashqi. Sifatlarning yozilishini yodda tuting. Daftaringizga quyidagi jadvalni chizib, unga ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing. Namunadagidek tahlil qiling.

So‘zlar	So‘z yasovchi qo‘shimchalar		Kelishik qo‘shimchalari					
	Ot yasovchi	Sifat yasovchi	B/k	Q/k	T/k	J/k	O‘p/k	Ch/k
Hunarlini		+			+			

112-mashq.
Boshqotirmani yeching va sifatlarni aniqlang.


Eniga:

1. Qo‘lsiz oyoqsiz eshik ochar.
2. Kichkina dekcha, Ichi to‘la mixcha.

Bo‘yiga:

3. Yungi igna, burni tugma, ko‘zi munchoq, bag‘ri yumshoq.

4. Pak-pakana bo‘yi bor, Yetti qavat to‘ni bor.





113-mashq. Topishmoqlarning javobini topib, yozing. Sifat yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

Daraxt emas, yaproqli,
Ko'ylak emas, etakli.
Odam emas, so'zlaydi,
Turli kuylar kuylaydi.

Nimaga o'xshaydi?

- Yaproqli
- Etakli
- So'zlaydi
- Kuylaydi

Farqi nimada?

- Daraxt emas
- Ko'ylak emas
- Odam emas
- Musiqachi emas

Ijodkorlik soati. Loyiha ishi

114-mashq. Jadvalda berilgan geometrik shakllarga ega narsalarni toping. Yana qanday narsalar shu shakllarga o‘xshash bo‘ladi? Misollar keltiring va yozing.



115-mashq. Tasavvur qiling, maktabdan qaytayotganingizda havo aynib, qattiq jala quydi. Siz soyabon olmagansiz, oldingizdan esa keksa yoshli onaxon chiqdi. Shunday vaziyatda siz nima qilasiz? Javobingizni izohlab yozing.



116-mashq. Savollarga javob berib, fikringizni izohlang.



Suv – obihayot

1. Suvni tejash uchun uyingizda, maktabda qanday choralar ko‘rgansiz?
2. Suvni nima uchun obihayot deymiz?
3. Suvsiz hayot qanday bo‘lishini tasavvur qilganmisiz?

117-mashq. **Testlarni yeching.**

1. Sifatlar berilgan qatorni belgilang.

A) Handalak, hissa, chiroyli
B) Aqlli, dono, dumaloq
D) Yozdi, chizdi, o‘qidi
E) Olti, besh, yigirma

2. Sifat turkumidagi so‘z qatnashgan gapni belgilang.

A) Halima kitobni o‘qidi
B) Sen sariq ko‘ylagingni kiyasanmi?
D) Salim oltinchi sinfda o‘qiydi
E) Malika Madina bilan dugona

3. Nuqtalar o‘rniga mos sifatni toping.

... shamol esdi.

A) Toza D) Ajoyib
B) Mayin E) Sariq



4. Ushbu gapda nechta sifat bor?

Rost so‘zlagan yetar niyatga,
Yolg‘on degan qolar uyatga.

A) 2 ta D) 1 ta
B) 3 ta E) 4 ta

5. Qaysi qatorda sifat ko‘plik shaklidagi otga bog‘lanib kelgan?

A) Qizil qalpoqcha D) Ulkan binolar
B) Toshqin daryo E) Keng dala

Qarama-qarshi ma'noli sifatlar

118-mashq. Rasmlarni bir-biri bilan taqqoslang. Yana qanday misollar keltira olasiz? Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli sifatlarga misollar yozing.

Ot itdan katta.
Bo'ri yo'lbarsdan kichik.
Ari chivindan katta.
Kapalak qo'ng'izdan katta.
Quyon yungi yumshoq,
Toshbaqaning toshi qattiq.
Tipratikan ignasi nayzali,
Qushning pati mayin.










119-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering va qarama-qarshi ma'noli sifatni topib, birga ko'chiring.

Bobur o'nga yaqin kitobni tanladi-da, savdolashmay haqini to'lab, navkarga oti ustiga tashlangan xurjunga solishni buyurdi. Shaharda ahvol **og'ir** bo'lishiga qaramay, kitoblar **qimmat** edi. Demak, kitob xarid qilish, ilmga qiziqish hali **kuchli** ekan. Bobur Mirzoning ko'ngli yorishdi.



120-mashq. Maqollarni o'qing, ularning mazmunini izohlang.


1. Yaxshi bola nom keltirar, Yomon bola g'am keltirar.
2. Hunarli yigit – mevali daraxt.
3. Yomon odam yovdan qochar, Nomard odam siring ochar.

121-mashq. Gaplarni o'qing. Shaxs-narsaning belgisini bildirgan so'zlarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.

1. Madina qiziqarli kitob o'qidi.
2. Tongda mayin shabada esadi.
3. Gulzorda qizil va sariq atirgullar ochildi.
4. Bizning sinfimizda ijodkor bolalar ko'p.
5. Shaharda katta va baland binolar qurilmoqda.



122-mashq. Quyidagi berilgan so'zlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlarni toping. Ularni so'z birikmasi shaklida yozing.



123-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bir-biri bilan qiyoslab ko'chiring.

1. **Odob** bozorda sotilmas. 2. **Odobli** bola elga manzur. 3. **Suv** bebaho boylikdir. 4. **Suvsiz** hayot bo'lmas. 5. Umida hovliga **gul** ekdi. 6. Varrak **guldor** qog'ozdan yasalgan edi.



124-mashq. Otlardan sifatlar hosil qiling, so'z yasovchi qo'shimchalarni namunada ko'rsatilgandek belgilang.

Mehr, suv, hosil, shira, so'z, rang, qudrat, nur, pul, sifat, qarz.

Namuna: Maza – mazali



125-mashq. Berilgan gaplardagi sifatlarni aniqlang.

1. Boburning xizmatkorlari darhol unga g'orning ichidan issiqqina, yumshoqqina joy tayyorlab berishibdi.

***Issiqqina* va *yumshoqqina* so'zlariga qanday qo'shimchalar qo'shilgan?**

2. Yigitlari bilan birga qor va sovuqdan so'ng ajab issiq va farog'atli joyda maza qilib dam olibdi.

Farog'atli so'ziga so'roq bering. – ... ?

Ushbu so'zga qanday qo'shimcha qo'shilgan? Qo'shimcha qo'shilmaganda bu so'z qanday so'roqqa javob bo'lar edi?



126-mashq. O'qing. Berilgan sifatlar qanday otlarga xos belgi bo'lishi mumkin? Shu otlarni topib, nuqtalar o'rniga qo'ying.

Ko'rkam va baland ... ; oppoq, qalin va yumshoq ... ; ko'k, qizil, yashil ... ; bepoyon va yam-yashil ... ; ko'm-ko'k, tiniq va tinch ... .

Foydalanish uchun so'zlar: daryo, qalam, daraxt, dala, qor.

Sifatlarning yozilishi



127-mashq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos sifat yasovchi qo‘shimchalarni qo‘yib o‘qing.

1. Chiroy… va g‘ubor… tabiat qo‘ynida sayr qildik. 2. Sinfimizda a’lo… o‘quvchilar ko‘p. 3. Odob… bola, elga manzur. 4. Qo‘l-oyoq… chopib tolmas, suv… aslo yashay olmas. 5. Sobir juda tejam… bola.



128-mashq. O‘qing. Sifatlarni aniqlang, narsalarning belgisiga ko‘ra topishmoqlarning javobini toping va yozing.

1. Ikki shoxli kiyigim,
Yuguradi minsa kim.

2. Yam-yashil po‘sti bor,
To‘q qizil go‘shti bor.

3. Oppoq boshli,
Qora qoshli.



129-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering va o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ertalab **quyuq** tuman tushdi. 2. Ertalabdan kechgacha **katta** mashinalarda qurilishga g‘isht tashildi. 3. Shamol allaqayoqdan **yoqimli** hid olib keldi. 4. Ertalab **toza** havoda nafas olish qanday maza. 5. Nonushtada **shirin** choy bilan **issiq** non yedik. 6. Karim rasmlarni **qip-qizil** qalam bilan bo‘yadi.

Sifatlar uch xil yoziladi.
Chiziqcha bilan yoziladi:
to‘ppa-to‘g‘ri, kap-katta.
Qo‘shib yoziladi: *oppoq.*
Ajratib yoziladi: *to‘q qizil,*
tim qora, to‘q yashil



130-mashq. Juftlab berilgan so‘z birikmalarini o‘qing. Ma’nosini farqlang.

Yashil dala – yam-yashil dala
Oq ko‘ylak – oppoq ko‘ylak
Tiniq buloq – tip-tiniq buloq
Qizil lola – qip-qizil lola
Katta qiz – kap-katta qiz
Pushti ko‘ylak – och pushti ko‘ylak

131-mashq. “Men topaman” nomli jadvalda berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma’noli sifatlarni yozing.

Past	
Achchiq	
Keng	
Yumshoq	
Oq	
Baland	
Katta	

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1-mavzu	2-chorakda o‘tilganlarni takrorlash	6
2-mavzu	So‘z turkumlari	8
3-mavzu	So‘z turkumlari	12
4-mavzu	Ot so‘z turkumi	14
5-mavzu	Otlarning ma’no turlari	17
6-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	20
7-mavzu	Otlarning ma’no turlari	22
8-mavzu	Otlar. Narsa, o‘simlik, tabiat hodisalari, o‘quv qurollari nomlari	24
9-mavzu	Kim? Nima? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar	26
10-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	29
11-mavzu	Hayvon va parranda nomini bildirgan otlar	31
12-mavzu	Hayvon va parranda nomini bildirgan otlar	33
13-mavzu	Otlarda birlik va ko‘plik	37
14-mavzu	Birlik va ko‘plikdagi otlarni farqlash	40
15-mavzu	Birlikdagi otlardan ko‘plikdagi otlarni hosil qilish	43
16-mavzu	Ot yasovchi qo‘shimchalar	47
17-mavzu	Ot yasovchi qo‘shimchalar	52
18-mavzu	Ot yasovchi qo‘shimchalar	53
19-mavzu	Yasama otlarning imlosi	56
20-mavzu	Yasama otlarning imlosi	59
21-mavzu	Sifat so‘z turkumi	61
22-mavzu	Sifat so‘z turkumi	64
23-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	67
24-mavzu	Sifatning otga bog‘lanishi	69
25-mavzu	Sifatning ma’no turlari	72
26-mavzu	Sifatning ma’no turlari	75
27-mavzu	Sifat yasovchi qo‘shimchalar	77
28-mavzu	Sifat yasovchi qo‘shimchalar	80
29-mavzu	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	84
30-mavzu	Qarama-qarshi ma’noli sifatlar	87
31-mavzu	Qarama-qarshi ma’noli sifatlar	90
32-mavzu	Sifatlarning yozilishi	92

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Baynazarova Dilnoza Djamaliddinovna

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ona tili

3-sinf
III qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*V. Frolov, R. Ismailova, T. Daminov*
Kompyuterda sahifalovchi	*D. Konoplich*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 03.08.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli.
"Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.
Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8.
Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-605.
"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.